

FANLARARO INTEGRATSIYA TASVIRIY SA'AT TA'LIMI SIFATI VA SAMARAAORLIGINI OSHIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATI SIFATIDA

Xudoyberdiyev Pardaboy

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi
kafedrasi katta o'qituvchisi
e-mail: pardaboyxudoyberdiyev@gmail.com*

Annotasiya. Tasviriy san'at ta'lifi tarixi va nazariyasi, ta'lim amaliyotining taxlilidan ayonki, ta'limning bu sohasida ko'rgazmalilik, fanlararo aloqadorlik, uzviylik va uzlucksizlik prinsiplari ustuvor tarzda qo'llaniladi. Chunki o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni shalkllantirishda, demakki, badiiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda bu prinsiplar alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'z: integratsiya, tasviriy savodxonlik, perspektiva, tasvir.

Аннотации. История и теория художественного образования, а также анализ образовательной практики показывают, что в этой области образования приоритет отдается принципам демонстрации, междисциплинарной связи, членства и преемственности. Потому что эти принципы особенно важны в формировании визуальной грамотности учащихся, а, следовательно, в повышении качества и эффективности художественного образования.

Ключевые слова: интеграция, визуальная грамотность, перспектива, имидж.

Annotation. The history and theory of fine arts education, as well as the analysis of educational practice, show that in this field of education the principles of demonstration, interdisciplinary connection, membership and continuity are given priority. Because these principles are especially important in the formation of visual literacy in students, and, consequently, in improving the quality and effectiveness of art education.

Key words: integration, visual literacy, perspective, image.

Ma'lumki, fanlararo aloqadorlik qonuniyatları ta'lif samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qo'llanib kelinadi. Shu ma'noda tasviriy san'at o'quv fanining boshqa o'quv fanlari bilan aloqadorligi badiiy ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning qo'shimcha imkoniyati sifatida ahamiyatlidir.

Jumladan, o'quvchilarning rangshunoslik, rang texnologiyalariga oid bilimlarini rivojlantirishda fizika va ximiya faniga oid bilimlarning ahamiyati beqiyosdir.

Tasviriy san'atdan o'quvchilarning savodxonlik darajalarini rivojlantirishda sohaning qonuniyatları haqidagi bilimlar muhim rol o'ynaydi. Shu ma'noda tasviriy san'atni chizmachilik bilan integrativ tarzda o'qitish badiiy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda shakl, konstruksiya, nisbat, perspektiva kabi qonuniyatlarni o'zlashtirishda qo'shimcha didaktik imkoniyatlarni taqdim etadi.

Har qanday o'quv fanidan ta'lif sifati va samaradorligini oshirishning muhim pedagogik shartlari mavjud. Shunday shartlar sirasida, shubhasiz, ta'lifning didaktik prinsiplari e'tirof etiladi. Ta'lifiy jarayonning kontekstidan, muayyan bosqichdagi ta'lifiy va tarbiyaviy maqsadlardan, shuningdek, o'quv fanlarining hususiyatlaridan kelib chiqqan holda u yoki bu didaktik prinsiplar qo'llanadi.

Tasviriy san'at ta'lifi tarixi va nazariyasi, ta'lif amaliyotining taxlilidan ayonki, ta'lifning bu sohasida ko'rgazmalilik, fanlararo aloqadorlik, uzviylik va uzlusizlik prinsiplari ustuvor tarzda qo'llaniladi. Chunki o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni shakkllantirishda, demakki, badiiy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishda bu prinsiplar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, tasviriy san'at asarlarini yaratish qonuniyati ikki o'lchovli tasvir sathida amalga oshiriladi. Biroq o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni shakkllaitirishda uchinchi o'lchov tartiblari, qonuniyatlaridan foydalanishga o'rgatish talab etiladi. Shu ma'noda, birinchi navbatda, perspektiva qonuniyatlarini bilish, uni tasviriy faoliyatga ongli tatbiq eta olish o'quvchilarning tasviriy savodxonligini oshirish zamirida badiiy ta'lif sifati va samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Zero, maktab tasviriy san'at ta'lifida beriladigan o'quv materiallarini o'zlashtirish uchun jarayonga mos didaktik imkoniyatlarni taqdim etish asnosida nazariy bilim hamda amaliy ko'nikmalarini bosqichma-bosqich o'zlashtirib borish taqozo etiladi.

Ma'lumki, har qanday ob'ekt (buyum va h.k.) makonda joylashadi. Tasviriy faoliyatda ularni muayyan qonuniyatlar asosida tasvirlash orqali o'ektlarni makondagi joyining real holatini to'g'ri belgilash mumkin bo'ladi. Bunda perspektiva qonuniyatlarini bilish asosiy shartlardan biri sanaladi. Chunki ob'ekt (buyum)learning planlilik holati, ya'ni ularni makondagi o'rni - biri oldinroqda, ikkinchisi orqaroqda va h.k. holatlar faqat perspektiva qonuniyatiga amal qilingan holatda to'g'ri tasvirlanishi mumkin. Bu talab Tasviriy san'at o'quv fanining Davlat ta'lif standartida ham o'quv kompetensiyasi sifatida belgilab qo'yilgan.

Demak, yuqoridaqilardan xulosa qilish mumkinki, bizni o'rab turgan muhit - tevarak-atrofimizdagi ob'ektlarni ongimizda doimiy saqlab qolish uchun turli usullardan foydalanamiz. Bu usullardan eng samaralisi, shubhasiz, narsalarning

tekislikda perspektiv tasvirini yasash hisoblanadi. Chunki narsaning perspektivasini yasashda uning geometrik elementlari har tomonlama tahlil qilinadi hamda shakli to‘liq o‘rganiladi va ongli ravishda idrok qilingach, tasviri y san’at qonuniyatlarasi asosida tasvir “quriladi”. Shu tarzda o‘quvchilar kuzatayotgan, idrok etayotgan, tasvirlayotgan har bir narsani tahlil qilishga odatlanadi. Bu odat tasviri y san’at ta’limida o‘quvchilarda tasviri y savodxonlik darajasini rivojlantirishning muhim omillaridan biri sanaladi. Kuzatuvchi fazodagi narsalarni qayerdan ko‘rayotganligiga qarab, ularni katta yoki kichik ko‘rish orqali narsalarning o‘zgarishini ongli idrok qila boshlaydi. Ikki o‘lchovli tekislikda perspektiv tasvirlar yasash jarayonida narsaning uchinchi o‘lchamini uni qayerda, nuqtasi qanday rakursda bo‘lishidan qat’i nazar tasvirni to‘g‘ri va aniq bajarish mumkin bo‘ladi. Shundagina tasviri y faoliyat mahsulida shakl, konstruksiya, makon va mazmun mutanosibligiga asoslangan tasvir hosil bo‘ladi.

O‘quvchilarda tasviri y san’atga oid o‘quv malakalarini rivojlantirishda soyalar nazariyasiga oid bilimlar ham muhim rol o‘ynaydi. Zero, yorug‘lik manbaisiz tasvir ham, shakl ham ko‘rinmas holatda bo‘ladi, ya’ni inson tevarak-atrofdagi buyumlarni biron-bir yorug‘lik manbai orqali yoritilishi tufayli ko‘radi. Bunda ham perspektiva qonuniyati amal qiladi, ya’ni buyum yorug‘lik manbaiga qanchalik yaqin bo‘lsa, buyumning konstruktiv tuzilishiga ko‘ra sirtlarini ajratib turuvchi yoritilgan (soya tusining to‘qlik) darajasi shunchalik aniq bo‘ladi. Bu holatda perspektivaning ham chiziq, ham havo (rang)dagi tatbiqi yaqqol ko‘rinadi. Aslida olamdagagi barcha ob’ekt, buyumlar ikki qonuniyat asosda ko‘rinadi. Bu — perspektiva va yorug‘-soya qonuniyatlaridir.

Shu o‘rinda haqli savol tug‘ilishi mumkin. Keltirilgan qonuniyatlar, asosan, chizmachilikka oid. Chizmachilik bilan tasviri y san’at sinflar kesimida bir paytda o‘qitilmaydi, ya’ni muayyan sinfda har ikki o‘quv fani parallel tarzda o‘qitilmaydi. Demak, o‘quvchilarda perspektiva, shakl, yorug‘-soya qonuniyatlariga oid yuqorida ma’lumotlardan foydalangan holda tasviri y faoliyat olib borish imkoniyati yo‘q. Bu savolga javob tariqasida ta’kidlash joizki, keltirilgan materiallar, birinchi navbatda, tasviri y san’at o‘qituvchisiga atalgan, qachonki ular o‘quvchilarga tasviri y san’at qonuniyatlarini tushuntirishda yuqorida misollar orqali keltirilgan qonuniyatarga rioya qilinsa, shubhasiz, o‘quvchilarning tasviri y faoliyatı savodliroq, mazmunliroq, samaraliroq kechadi. Bu esa o‘quvchilarning grafik savodxonligini sezilarli darajada oshirishini ta’minlashini ko‘rsatdi. Bu esa tasviri y san’at ta’limi sifati va samaradorligini oshirishning muhim didaktik imkoniyatlaridan biridir.

Tasviri y san’at ta’limi sifati va smaradorligini oshirishda uning mazmunini. o‘quvchilarning badiiy mushohadasini boyitadigan mainbaalardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Ayniqsa, o‘quvchilarning tarix va adabiyot darslarida

olgan bilimlaridan foydalanish o‘quvchilarning kompozitsion faoliyat borasidagi harakatlarida asqotadi. Jumladan, tarixiy manbalar hamda badiiy asar syujetlari asosida kompozitsiya ishlashda ta’sirchan mavzu sifatida tanlanishi mumkin. Sinflarda O‘zbekiston tarixi fanini o‘qitish samaradorligini oshirishda qo‘sishimcha manba sifatida tasviriy san’atning tarixiy janrdagi asarlaridan, shuningdek miniatyura asarlaridan foydalanishning ta’limiy va tarbiyavir ahamiyati beqiyos. Bu jarayonga teskari aloqa sifatida tasviri! san’at darslarida tarixga oid materiallardan foydalaniv o‘quvchilarning har ikki fanga oid bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarixiy mavzudagi tasviriy san’at asarlari o‘quvchilarda tarixiy tushunchalarni shakllantirishga, ularning nazariy xulosalar va umumlashgan yakunlarvdagi ijtimoiy rivojlanish- ning ob’ektiv qonuniyatlarining o‘zaro aloqalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi, shuningdek, o‘quvchilarni estetik jihatdai tarbiyalashning muhim vositasi sifatida ham e’tiborlidir.

Tarixiy mavzudagi tasviriy san’at asarlari o‘quvchilarda ko‘rish analizatori ishtirokida mushohada etish va ular haqida aniq tasavvur hosil qilish bilan chegaralanmaydi, balki murakkab tarixiy hodisalarini, tushunchalarni tushunib olishni ham yengillashtiradi, tarixni to‘g‘ri va real tushunishga yordam beradi.

Shunday qilib, tarixiy mavzudagi tasviriy san’at asarlaridan foydalanishning muhim ahamiyati quyidagilardan iborat:

- tarixiy bilimlarning asosiy manbalari bo‘lib xizmat qiladi;
- o‘quv materialining ta’limiy va tarbiyaviy vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi;
- o‘qituvchi bayonining aniq. obrazli va emotsional bo‘lishiga yordam beradi;
- o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishini oshiradi va ularning bilish faoliyatini kuchaytiradi;
- o‘quvchilarning fikrlash va ijodiy qobiliyatini o‘stiradi;
- o‘quvchilarning tarixiy bilimlarini aniq, chuqurroq va mustahkamroq bo‘lishiga yordam beradi.

Tasviriy san’at asarlarini tarix o‘qitishdagi ahamiyati uch narsa bilan belgilanadi: birinchidan, asar syujetining tarix fanini o‘qitishda qanchalik muhim zkanligi bilan, ikkinchidan, san’atkor (yozuvchi, aktyor va h.k.shing tarixiy vogelikning qanchalik to‘g‘ri anglay olganligi va obrazli aks ettira bilganligi bilan, uchinchidan, asarning g’oyasi va uni badiiy tarzda ochib berish vositalarining tegishli yoshdagi o‘quvchilarga nechog‘liq tushunarli ekanligi bilan belgilanadi. Bu yo‘nalishdagi bilimlar o‘quvchilarda tarixiy janrda kompozitsiya ishlashlarida, shuningdek. “Men sevgan qahramon” mavzusida rasm ishlashlarida foydali bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, tarix darslarida foydalaniladigan tasviriy san’at asarlariga ham asosan tarixga doir boshqa o‘quv qo‘llanmalariga qo‘yiladigan talablar qo‘yiladi. Bu talablarni amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Mazkur xususiyatlar asosida tarix darslarida foydalaniladigan tasviriy san’at asarlarining bir qator vazifalari belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan hamda tarix ta’limiga oid ma’lumotlarning tasviriy san’at o‘quv fani uchun ahamiyatli jihat shundaki. bu omil ikki tomonlama samara beradi. Birinchidan. o‘quvchilarda kompozitsion faoliyat uchun badiiy mushohada doirasi kengayadi. Natijada ularning tasviriy san’atining tur va janrlarida yaratayotgan kompozitsiyalarida mazmun va shakl uyg’unligi kuzatiladi. Ikkinchidan, o‘quvchilarda tarixiy janrdagi tasviriy san’at asarlarini badiiy estetik idrok etish saviyasi ortadi.

O‘quvchilarning kompozitsion faoliyati natijalari tasviriy san’at ta’limi sifati va samaradorligini belgilovchi asosiy parametrlardan biridir. Bu borada o‘quvchilarning adabiy asar syujeti asosida kompozitsiya yaratishlari tasviriy san’at ta’limining barcha sinflarida nazarda tutilganligi ham e’tiborlidir. Shu ma’noda tasviriy san’at darslarida o‘quvchilarning illyustrativ rasm ishslash bilan bog’liq bo‘lgan tasviriy-ijodiy faoliyatlarini alohida didaktik imkoniyat sifatida e’tirof etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O’zbekistan, 2017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. Toshkent. O’zbekiston, 2017.-104 b.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratok O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O’zbekiston, 2016. - 56 b.
4. Sulaymonov A., Saydaliev S. Aniq fanlarga oid bilimlarning integrativ tatbiqi // Aniq va tabiiy fanlarning o‘qitish samaradorligini oshirish va ta’lim sifati indikatorlarini amaliyotga samarali joriy etish
5. Begmatova R. Yangicha yondashuv ta’lim sifatini oshiruvchi omil. www.jomal.fledi.o'z Ilmiy-metodik elektron jurnal. -T.: 2016 №2 (10).
6. Orishev, Jamshid (2021) "PROJECT FOR TRAINING PROFESSIONAL SKILLS FOR FUTURE TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION," *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*: Vol. 2021 : Iss. 2 , Article 16.

7. Тагаев, Х., Убайдуллаев, С., Алкаров, К. Х., & Оришев, Ж. Б. (2016). ПОВЫШЕНИЕ ПАТЕНТНЫХ ЗНАНИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ. In *Современные тенденции развития аграрного комплекса* (pp. 1776-1780).
8. Алқаров, Қ. Х., Ибрагимов, А. Р., & Пардаев, Б. А. (2019). ТҮГАРАК АЪЗОЛАРИНИ ИЖОДКОРЛИК ФАОЛИЯТГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ ВА БОСҚИЧЛАРИ. *Интернаука*, (20-3), 51-52.
9. Alqorov, Q. (2020). Мухандислик таълимида талабалар техник ижодкорлик қобилияти ривожлантириш технологияси. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
10. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'ATDAN AMALIY MASHG'ULOTLAR BAJARISH JARAYONIDA TALABALARNI AMALIY PYERSPYEKTIWADAN FOYDALANISHGA O'RGGATISH. *Science and Education*, 1(8).
11. Xudoyberdiyev, P. (2021). RANGTASVIR TARAQQIYOTINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. *Журнал музыки и искусства*, 2(2).
12. Xudoyberdiyev, P. (2020). TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA FAOLIYAT TURLARI ALOQADORLIGI ASOSIDA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING METODIK ASOSLARI. *Журнал музыки и искусства*, 1(1).
13. Xudoyberdiyev, P. (2020). European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences: European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. *Архив Научных Публикаций JSPI*.
14. Orishev, J. (2021). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИДА ЛОЙИХАЛАШ МЕТОДИНинг ИМКОНИЯТЛАРИ . *Физико-технологического образования*, 4(4)
15. Malohat Abdurahmonova, Jamshid Orishev, ЎҚУВЧИЛАРНИ КАСБИЙ ФАОЛИЯТГА ЙЎНАЛТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИЛЛАРИ , Физико-технологического образования: Том 4 № 4 (2021)
16. Jamshid Orishev, ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЛОЙИХАЛИ ТАЪЛИМДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ , Физико-технологического образования: № 3 (2021)